Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o'rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy lug'atda "Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli quyilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi", - deb tariflangan. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiyalar tayinlangan ob'yekti bo'yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan. [4].

Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob'yektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin. [5].

➤ mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;



➤ ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

➤ intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni;


Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, rivojlanishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, investitsion muhit davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. [6]. Mustaqilligimizning qisqa davrida investitsion faolligini oshirish, uni kuchaytirish, investitsion salohiyatni oshirish maqsadida bir qancha amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqarildi va hayotga tadbiq qilinmoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. [7]. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z investitsiya siyosatini olib bormoqda. [8].

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxona investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfa'atlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladiga chora-tadbirlar majmui. [9].

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal rivojlantirish, texnika va texnologiyalarni qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi. [10]. Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqadi: ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ularni qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotganligi va jamg'arishning investitsiya manbayi sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbayi bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi va boshqalar. [11].

Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig'indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste'mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi. [12].

1.2-rasm



1-rasm. Investitsiya salohiyati.



1-rasm orqali biz investitsiya salohiyatiga tabiiy-resurs salohiyati, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion salohiyat, iste'mol salohiyati, moliyaviy salohiyat, xizmat ko'rsatish salohiyati kabi omillar ta'sir etishini ko'rishimiz mumkin. [13].

Keng ma'noda "salohiyat" tushunchasi ma'lum bir vazifaga yoki maqsadga erishish maqsadida ishga solinishi yoki foydalanishi mumkin bo'lgan manbaalar, mavjud imkoniyatlar, vositalar yoki zahiralardan iborat bo'ladi. Shunday ekan, "Investitsiya salohiyati" tushunchasi daromad olish yoki boshqa iqtisodiy natijalariga erishish maqsadida uzoq muddatli aktivlarga, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarga mablag'lar tikish imkoniyati darajasini ifodalaydi. [14].

Investitsion va innovatsiya salohiyati mamlakatdagi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotishlarining amalga oshirilishi, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi (yangi avlodi), milliy ishlab chiqarishdagi yangiliklar va nou-haular, kashfiyotlarni tavsiflaydi. Iste'mol salohiyati investorlar tomonidan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda qancha ulushi sotilishi, shu asosda talabni o'rganish, raqobatchilar va aholining daromadlari darajasi sifatida qaraladi. [15]. Moliyaviy salohiyat ushbu mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'armaning nisbati, aholining boy va kambag'allar qatlami soni, bank sohasida pul-kredit va depozit siyosati, tashqi qarzlarning holati, ichki zahiralarning va hokazolarni tavsiflaydi. Investitsiya salohiyatini ifodalovchi ushbu omillarning mavjudligi xorijiy tadbirkorlarning aynan o'sha mamlakatga investitsiya qilishining asosiy sabablaridan bo'lishiga hech qanday shak-shubha yo'q. [16]. Biroq investitsiya salohiyatining mavjudligi xorijiy investitsiyalarning uzoq muddat davomida barqaror kirib kelishini kafolatlay olmaydi. [17]. Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali "hazm qilinmagan" boylik hisoblanadi. Investitsiya muhitini baholash, aynan, investitsiya shart-sharoitlariga asoslanadi. [18]. Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

- umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar
- YalMning o'sish sur'atlari, inflatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to'lov balansi, monopolizm darajasi, valuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat budjeti defitsiti va shu kabilar;
- siyosiy shart-sharoitlar;
- mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlari hamda ularga yaratilgan kafolatlarni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va shu kabilar;
- bozor mexanizmi shart-sharoitlari;
- bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug'urta, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va shu kabilar;
- axborot ta'minoti shart-sharoitlari;
- axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va shu kabilar;
- ekologik shart-sharoitlar
- mamlakatdagi ekologik holat, mamlakat va qo'shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me'yorlarga amal qilish holati va shu kabilar;
- ijtimoiy-madaniy va etnografik shart-sharoitlar;
- mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabati va shu kabilar. [19].

Ma'lumki, hukumat mamlakatdagi investitsiya shart-sharoitlarini takomillashtirib, makroiqtisodiy holatni yaxshilaydi, iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qiladi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. [20]. Bu esa nafaqat xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlaydi, balki ichki investitsiya jarayonlarini faollashtiradi. [21]. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy qonunlarni doimo takomillashtirib borish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, xorijiy sarmoyalar oqimining kirib kelishini rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. [22].

Mamlakatimiz ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan va jahon mamlakatlari orasida o'z o'rniga ega bo'lib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Respublikada mustaqillikka erishilganidan buyon mamlakat rivojida jalb qilingan kapitalning ahamiyati anglashilgan holda uzoq yillarga mo'ljallangan samarali investitsiya siyosati va uni amalga oshirish strategiyalari belgilangan. [23].


Respublikamizga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va bu orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida amalga oshirilishi ko'zlangan "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120

milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish¹ haqidagi 26- maqsadi mamlakatimiz investitsiya muhitining investorlar uchun qulay va jozibadorligi qanchalik muhim ekanining yaqqol dalilidir. [4].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, investisiya salohiyati ko'p omilli ko'rsatkich bo'lib, u keng ko'lamdagi tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xarakterga ega bo'lgan sharoit va imkoniyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun, muayyan hududning investisiya salohiyatini baholash uchun tadqiqotning maqsadlari va mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib mos ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish zarur. [24].

Mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini oqilona joylashtirish, ularning nisbiy ustunliklari va o'sish zaxiralarini hisobga olib chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun investisiya salohiyatini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. [25]. Mamlakatimizning tabiiy va mehnat resurslariga boyligi, unda iste'mol bozorining mavjudligi, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligi, keng ko'lamda ilmiy-ta'lim islohotlarining amalga oshirilayotganligini hisobga olib, uning investisiya salohiyatini baholashda investisiya faolligi, ishlab chiqarish, tabiiy-resurs, iste'mol, mehnat, infratuzilma, institutsional, ilmiy-ta'lim, eksport va innovatsiya integral ko'rsatkichlarini taklif etish mumkin. [26].

2-rasm



2-rasm (Investitsiya salohiyati).

Mazkur integral ko'rsatkichlar birgalikda investisiya faoliyatiga qaraganda ko'proq umumiy iqtisodiy salohiyatni ifodalagani va majmuaviy xarakterga ega bo'lgani uchun, ularni investisiya salohiyatini baholashda ahamiyati jihatidan teng ulushlarda foydalanish tavsiya etilmaydi. [27].

Shu sababdan, investisiya salohiyatining yagona indikatorni hisoblashda uni tashkil qiluvchi har bir ko'rsatkichga alohida vazn koeffitsientlarini biriktiramiz. Bunda investitsion faollik investisiya salohiyatini ifodalovchi asosiy hosila bo'lgani uchun, ushbu integral ko'rsatkichga eng yuqori vazn koeffitsientini beramiz. [28]. Sanab o'tilgan har bir investisiya salohiyati yo'nalishi alohida aniq tahliliy ko'rsatkichlarni hisoblash va o'rganish asosida shakllantiriladi. [29]. Mamlakat iqtisodiyoti va uning hududlari investisiya salohiyatini baholash [30]. hisob-kitoblari bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda har bir yo'nalish (investitsion faollik, ishlab chiqarish salohiyati va h.z.) bo'yicha alohida ko'rsatkichlar (YalM o'sishi, investitsiyalarning YalMdagi ulushi kabi) koeffitsientlari quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$x_{ij} = (x_{ij} - x_{\min i}) / (x_{\max i} - x_{\min i})$$

bu yerda x_{ij} - j mintaqaning i-ko'rsatkichi;

$x_{\min i}$ - hududlar bo'yicha i-ko'rsatkichning eng kichik qiymati,

$x_{\max i}$ - hududlar bo'yicha i-ko'rsatkichning eng katta qiymati.

Keyingi bosqichda har bir olingan alohida koeffitsientning har bir yo'nalish doirasidagi o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi va integral subindeks shakllantiriladi:

$$S = \sum_{ij=1}^n x_{ij} / n$$

bu yerda S- investisiya salohiyati yo'nalishi subindeksi,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni



X_j – mintaqaning j- ko'rsatkichi koeffitsienti
 n – ko'rsatkich turlari soni.

Investitsiya salohiyatini baholash maqsadida bir qator ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar mintaq, hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual tarzda tanlab olinadi [31]. (1-jadval).

1-jadval. Investitsiya salohiyatini baholash tizimi ko'rsatkichlari.

№	Yo'nalishlar	Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi
1	Investitsion faollik	Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati	$IO' = IH(jy) / IH(jy-1)$ bu yerda: IH – doimiy narxlarda investitsiyalar hajmi; jy – joriy yil
2		YHM da investitsiyalar ulushi	$IU = IH(jy) / YHM(jy)$ bu yerda: IH(jy)- joriy narxlarda investitsiyalar hajmi; YaHM(jy)– joriy narxlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi, jy – joriy yil
3		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi investitsiyalar hajmi	$JB I = IH(jy) / AS(jy)$ bu yerda: IH(jy)- joriy narxlarda investitsiyalar hajmi; ASjy – aholi soni
4	Ishlab chiqarish salohiyati	Yalpi ishlab chiqarish konsentratsiyasi	$YIK = (YXM / YIM) / (MAS / RAS) * 100\%$ bu yerda: YXM– yalpi hududiy mahsulot hajmi, YIM – yalpi ichki mahsulot hajmi, MAS– mintaq aholi soni, RAS – respublika aholi soni.
5		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaHM hajmi	$JB YaIM = YaHM(jy) / MAS(jy)$ bu yerda: YaHM(jy)– joriy narxlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi, MAS(jy)– mintaq aholi soni, jy – joriy yil.
6	Tabiiy-resurs salohiyati	Mineral xomashyo resurslari tabiiy zaxiralarining mavjudligi	$MXRZ = (MXRNH \times JN) / AS$ bu yerda: MXRNH - mintaq mineral xomashyo resurslarining natural hajmi, JN– tegishli mineral xomashyo resurslarining jahon narxi, AS– aholi soni.
7	Iste'mol salohiyati	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha umumiy daromad	$AJO'UD = OD / AS$ bu yerda: UDH– umumiy daromadlar hajmi, AS – aholi soni.
8	Mehnat salohiyati	Mehnat resurslarida bandlar soni ulushi	$BSU = (BS / MRS) * 100\%$ bu yerda: BS – bandlar soni, MRS – mehnat resurslari soni.
9		Umumiy aholi sonida mehnat resurslari ulushi	$MRU = (MRS / AS) * 100\%$ bu yerda: MRS – mehnat resurslari soni, AS – mintaqada aholi soni.
10	Infratuzilma salohiyati	1000 kv. km maydonga nisbatan umumiy foydalaniladigan ishga tushirilgan temir yo'l uzunligi zichligi	$TYUZ = TYU / (MHM / 1000)$ bu yerda: TYU – umumiy foydalaniladigan temir yo'l uzunligi, MHM – mintaq hududi maydoni.



11	Institutsional salohiyat	Har 100 ming kishiga to'g'ri keluvchi tijorat banklari va ularning filiallari soni	$BFS = KB / (ChN / 100000)$ bu yerda: KB – mintaqada tijorat banklari va ularning filiallari soni, AS – aholi soni.
12		Har 100 ming kishiga to'g'ri keluvchi ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni	$RO'KTS = KZP / (ChN / 100000)$ bu yerda: RKTS - ro'yxatdan o'tgan korxonava tashkilotlar soni, AS – aholi soni.
13	Ilmiy-ta'lim salohiyati	Umumiy aholi sonida O'MKHT bitiruvchilari ulushi	$O'MKHT = (O'S / AS) * 100\%$ bu yerda: O'S – o'rta-maxsus kasb hunar ta'limida o'quvchilar soni, AS – aholi soni.
14		Umumiy aholi sonida fan doktori va nomzodlari ulushi	$FDNU = FDNS / AS * 100\%$ bu yerda: FDNS – mintaqada fan doktori va nomzodlari soni, AS – aholi soni.
15		Umumiy aholi sonida oliy o'quv yurti bitiruvchilari ulushi	$OTU = OO'YBS / AS * 100\%$ bu yerda: OO'YBS – oliy o'quv yurti bitiruvchilari soni, AS – aholi soni.
16	Eksport salohiyati	YaHMda eksport ulushi	$EU = MEH / YaHM * 100\%$ bu yerda: MEH – mintaqada eksport hajmi, YaHM – yalpi hududiy mahsulot hajmi.
17		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi eksport hajmi	$JBEH = MEH / AS$ bu yerda: MEH – mintaqada eksport hajmi, AS – aholi soni.
18		Eksport ixtisoslashuvi ko'effisienti	$EIK = HEU / YaHMU$ bu yerda: HEU – hududiy eksport hajmining respublika eksportidagi ulushi, YaXMU – mintaqada YaHMning respublika YalMdagi ulushi
19	Innovatsiya va unumdorlik salohiyati	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovasion tovarlar, ishlar, xizmatlar hajmi	$IICH = IICH / AS$ bu yerda: IICH - o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovasion tovarlar, ishlar, xizmatlar hajmi, AS – aholi soni.
20		Tashkilotlar tomonidan bajarilgan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi	$TITTK = ITTKH / AS$ bu yerda: ITTKH - tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi, AS – aholi soni.

Uchinchi bosqichda esa alohida mintaqalar bo'yicha olingan subindeks ko'effisientlari quyidagi formula yordamida yagona ko'rsatkichga keltiriladi:

$$I = \sum_{y=1}^n S_{yx} K_y$$

bu yerda

I – alohida hudud investisiya salohiyati integral ko'effisienti;

Sy – mintaqada investisiya salohiyatining y-yo'nalishi subindeksi;

Ky – mintaqada y-yo'nalishining ahamiyati jihatidan vazn ko'effisienti;

n – yo'nalishlar soni.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyot va uning hududlari investisiya salohiyati darajasini aniqlashga qaratilgan keng ko'lamli tahlil investisiyalarni, ayniqsa, chet el kapitalini hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, yashirin o'sish nuqtalari va zaxiralarini aniqlash, nisbiy ustunliklardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. [32]. Xususan, yuqorida keltirilgan metodlar investisiya salohiyati bo'yicha nafaqat makroiqtisodiy xulosalar, balki respublikamiz hududlarining investisiya salohiyati bo'yicha mutanosib rivojlanish darajasini tahlil qilish



va mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor investisiya siyosati yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. [33].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "INVESTITSİYALAR VA INVESTITSİYA FAOLIYATI TO'G'RISIDA"gi Qonuni, 25.12.2019-yildagi O'RQ-598-son 3-moddasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
3. Ўзбекистон Республикасининг 2023 — 2025-йилларга мўлжалланган Инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2022 йил 28 декабрь, ПҚ-459-сон
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.03.2024-yildagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risida
5. Norova S.Yu. Myseva Ж.К., Халилова М.А. Бухоро вилоятida investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmlari (monografiya) bosma Buxoro. Durdona нашриёти 2025 й. 105 бет
6. Norova S.Yu., Xalilova Madinabonu. Investitsion muhit jozibadorligi mintaqa iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili. «Raqqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami 22-23-aprel, 2024-yil, 104-108- b
7. Norova S.Yu. Hududlar rivojlanishini ta'minlashda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyati: «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. Toshkent: 2024. № 2. 885-888 b.
8. Norova S.Yu., Xayitova I.N., Xalilova M.A. Mintaqalarini strategik rivojlantirishda raqqamlashtirishning hududlar investitsion salohiyatini oshirishdagi ahamiyati. «Raqqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami 22-23-aprel, 2024-yil. 137-143b
9. Jumayeva.D.X., Musayeva J.K. Xalilova M.A.qizi. Investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni. «Raqqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami 22-23-aprel, 2024-yil, 125-132- b.
10. Musayeva J.K., Khalilova M.A. qizi. Features of investment processes of the development of the economy of uzbekistan in the conditions of globalizationyu Web of scientist: international scientific research journal 2023-04-15 ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 4, April., 2023 618-628-b
11. Musayeva J.K., Xalilova M.A.qizi. Iqtisodiyotni raqqamlashtirish sharoitida investitsiya jarayoni. "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"ga bag'ishlangan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar va talabalarning ilmiy-amaliy anjumani. 2023 yil 15-16 may, 115- bet
12. Musayeva J.K., Xalilova M.N.; Xalilova M.A.qizi. Zamonaviy sharoitlarda aktivlar va investitsiyilardan samarali foydalanish yo'nalishlari. Ta'lim fidoyilari: June 7, 2023 DOI: 10.5281/1-qism-29-37
13. Musayeva J.K., Xalilova M. A qizi. IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INVESTITSİYA JARAYONI "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"ga bag'ishlangan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar va talabalarning ilmiy-amaliy anjumani TEZISLAR TO'PLAMI. 2023-yil 15-16-may
14. Мусаева Ж.К., Хамидов О.Р., Халилова М.А. «Механизмы повышения инвестиционного потенциала региона в современных условиях». XIII Международная научно-практическая конференция для студентов, магистрантов, аспирантов и молодых ученых «АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ» г. Белгород, 27 апреля 2023 г.
15. Мусаева Ж.К., Гуломов О., Халилова М.А. Иқтисодиётни ривожлантиришда инвестиция лойиҳасининг аҳамияти "ФАН,ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИННОВАЦИОН ҲАМКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ" мавзусида профессор-ўқитувчилар, катта илмий ходим изланувчилар, магистрлар ва талабалар илмий -амалий анжумани материаллари. Бухоро, 2016. 608-610 б
16. Мусаева Ж.К., Юлдашева С.Н., Халилова М.А. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash tamoyillari "Олий ва ўрта махсус, касб - хунар таълими муассасалари ҳамкорлигининг долзарб муаммолари". Республика илмий –амалий анжумани МАҚОЛАЛАРИ Тўғлам. Тошкент, 2014. 258-260 б.
17. Musaeva J.K., Jumaeva D.X., Xalilova M.A.kizi. Zamonaviy iqtisodiyotda raqqablashuvchi investisiya loyihalarini iqtisodiy tahlil qilish va baholash xususiyatlari "FAN,TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH INNOVATION HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI" mavzusida professor-o'qituvchilar , katta ilmiy xodim izlanuvchilar, magistrlar va talabalar ilmiy -amaliy anjumani materiallari . Buxoro, 2016. 608-610 b.
18. Musayeva J. INNOVATION O'ZGARISHLAR DAVRIDA SANOAT KORXONALARINING ASOSIY VOSITALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH //TARAQQIYOT SPEKTRI. – 2025. – T. 1. – №. 8. – С. 530-545. <https://unipublish.uz/index.php/fivti/article/view/100>
19. Karomatovna M. J. IQTISODIYOT TARMOQ VA SOHALARIDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHULARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR. – 2025. – T. 1. – №. 8. – С. 282-286. <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/3304>
20. Karomatovna M. J. ISSUES OF MANAGEMENT OF FIXED ASSETS OF ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF ECONOMIC INTEGRATION //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – C. 104. <https://www.jmveindia.com/journal/December%2024%20%20Special%20Edition%202024.pdf>
21. Musayeva, J. (2025). THE NEED FOR MANAGING THE FIXED ASSETS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN ACHIEVING THE GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1045–1055. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/75667>



22. Мусаева Ж. Совершенствование эффективного управления основными активами предприятий в условиях инновационного развития //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2025. – Т. 3. – №. 2. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/4511>
23. Karomatovna M. J. KORXONALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY TASHKILIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH //JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 163-178.
24. Musaeva J. KORXONALARDA ASOSIY AKTIVLARNI BOSHQARISH //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2024. – Т. 11. – С. 120-124. https://www.herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/974
25. Мусаева Жамила Кароматовна. Необходимость управления обновлением основных активов в промышленных предприятиях Узбекистана. "ECONOMICS AND TOURISM" international scientific and innovative journal No2(16) 2024. 40-49 стр. <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/233>
26. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 554-564. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirishda-aktivlarni-boshqarishning-o-rni-va-rol-i>
27. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
28. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.
29. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА // ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.
30. Мусаева Ж. К. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 76-78.
31. Мусаева Ж. К., Халилова М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ АНАЛИЗА ВНЕШНЕЙ СРЕДЫ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНОМ БИЗНЕСЕ //ББК 65.0501 А 43. – 2019. – С. 154.
32. Мусаева Ж. К., Халилова М. А., Мусаева А. К. СОВРЕМЕННЫЙ МЕХАНИЗМ СТИМУЛИРОВАНИЯ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Вопросы экономических наук. – 2015. – №. 1. – С. 17-18.
33. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ В УПРАВЛЕНИИ ПРОЕКТАМИ //Актуальные проблемы современной науки. – 2014. – №. 3. – С. 27-29.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
